

**TIBBIY BIOLOGIYA TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL
USULLARNING QO'LLANISHI**

Jumayeva Sh. B.

Buxoro davlat tibbiyot instituti, tibbiy biologiya kafedrasi assistenti,

shoista_jumayeva@bsmi.uz

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tibbiy biologiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish talabalar bilimini chuqurlashtirish, fanga qiziqishni oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biridir.

Kalit so'zlar: interfaol usul, pedagogik texnologiya, tibbiy biologiya, talaba faolligi, klaster, akvarium, aqliy hujum.

Tibbiy biologiya fanini o'qitishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish orqali talabalar bilim, ko'nikma va kasbiy malakalarini oshirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish hamda ularni o'z mutaxassisligi doirasida mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish.

Talabalar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda ilmiy-texnik vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar va ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar tahlil qilindi.

Tibbiy biologiya fanini o'qitishda "Akvarium", "Keys-stadi" va "Aqliy hujum" kabi interfaol usullarni qo'llash talabalar faoliyatini faollashtiradi, ularda muloqot madaniyatini, ilmiy asosda fikrlashni va jamoada ishlash malakasini rivojlantiradi.

"Aylana stol" — bu ta'lim jarayonida talabalarning fikrlash, tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini erkin bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan



interfaol o'qitish usulidir. Ushbu usulda barcha ishtirokchilar bir xil sharoitda, "aylana" shaklidagi muhokama formatida joylashadi va ma'lum mavzu yuzasidan fikr almashadilar.

Mazkur metodning asosiy maqsadi — har bir talabaga o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarning qarashlarini tinglash va muhokama jarayonida umumiy xulosa chiqarish imkonini yaratishdir.

Aylana stol" usulining o'ziga xos jihatlari: Barcha ishtirokchilar teng huquqli bo'ladi, ya'ni "rahbar – tinglovchi" munosabati yo'q, muhokama mavzusi oldindan belgilanadi va barcha talabalarga tanishtiriladi, o'qituvchi moderator yoki yo'naltiruvchi sifatida qatnashadi, har bir talaba o'z fikrini qisqa, asosli va muloqot madaniyatiga rioya qilgan holda bildiradi, yakunda umumiy xulosa shakllantiriladi.

"Akvarium" usuli

Bu usulda talabalar "Ibn Sino" va "Gippokrat" deb nomlangan guruhlariga bo'linib, berilgan mavzu bo'yicha bahs yoki rolli o'yin shaklida mashg'ulot o'tkaziladi. Masalan, "Organizmlarning embrional rivojlanishi", "Mendel qonunlari", "Ekologiya va inson ekologiyasi" mavzularida ikki guruh o'z fikrlarini asoslaydi. Ushbu usul talabalarni ilmiy asosda bahslashish, dalillarga tayangan holda fikr bildirish va jamoaviy ishlashga o'rgatadi. Natijada talabalar nazariy tushunchalarni hayotiy misollar bilan izohlashni o'zlashtiradilar.

"Keys-stadi" usuli

Bu usul amaliyot bilan bog'liq muammoli holatlar asosida o'qitishni nazarda tutadi. Masalan, "Irsiy kasalliklar. Xromosoma va gen kasalliklari" mavzusida "Irsiy sindrom aniqlangan bemor misolida genetik maslahat berish" holati tahlil qilinadi. Talabalar real hayotdagi vaziyatni tahlil qilib, nazariy bilimni amaliyotda qo'llash, ilmiy asosda yechim topish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu yondashuv talabalarning kasbiy fikrlashini shakllantiradi va ularni kelgusidagi amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Tibbiy biologiya fanini interfaol usullar orqali o'qitish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida talabalar nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtiribgina qolmay, balki ularni



amaliy faoliyatda tatbiq etish, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Interfaol metodlar — “Akvarium”, “Keys-stadi”, “Aqliy hujum” — talabalar ijodkorligini, tahliliy fikrlashini, ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu usullar “talaba shaxsi markazda” tamoyilini ta'minlab, o'qituvchini yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi roliga o'tkazadi. Natijada, talabalarda ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlash va o'z bilimini amaliyotda qo'llashga bo'lgan ichki motivatsiya kuchayadi.

Shunday qilib, interfaol usullarni qo'llash orqali tibbiy biologiya fanini o'qitish ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'taradi, talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy tayyorgarlik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva N., Rahimova M. *“Biologiya ta'limida innovatsion usullar”*. – Toshkent, 2022.
2. Boltaeva Sh.A. *Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish*. Osiyo xalqaro axborotnomasi, 2025. № 2. 96–101.
3. Mirziyoyev Sh.M. *“Yangi O'zbekiston strategiyasi”*. – Toshkent, 2021.
4. Pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar to'plami. – Toshkent, 2020.
5. Seïtova G. *“Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”*. – Toshkent, 2019.
6. Xidirova N.Sh. *Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning o'rni. – Ta'limda innovatsiyalar va integratsiya*, №18, 2-son, 2024-yil aprel, B. 157–160.
7. O'zbekiston Respublikasining *“Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni*. – Toshkent, 2020.